

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

# №5

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

# 2026 MAY



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic  
Resource  
Index  
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS  
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ  
БИБЛИОТЕКА  
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ  
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА  
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, may.

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afforovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

**Kalonova Moxigul Baxritdinovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Norboyev Odil Abrayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Pardaev Umidjon Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich**, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK  
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

АДАПТИВНОЕ БИЗНЕС-ПЛАНИРОВАНИЕ КАК ИНСТРУМЕНТ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ.....	10
<b>Шарипов Конгратбай Авезимбетович, Исматуллаев Темур Равшан угли</b>	
STERJEN KO'NDALANG KESIM YUZASI ELLIPS SHAKLIDAGI TRANSFORMATORNING QISQA TUTASHUV PAYTIDAGI MEKANIK ZO'RIQISHGA CHIDAMLILIGI .....	18
<b>Bekishev Allabergen Yergashevich, Yakubova Dilfuza Kuanishovna, Saidova Nozima Akkulovna</b>	
ВЛИЯНИЕ ДЕМОГРАФИЧЕСКОЙ ДИНАМИКИ НА РАЗВИТИЕ СФЕРЫ УСЛУГ: ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА.....	26
<b>Мусаева Шоира Азимовна, Муйинжонов Хусейн Алишеревич</b>	
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ КОМПАНИЙ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО АДАПТАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ .....	35
<b>Габбарова Ильмира Володиевна</b>	
BALAND BINOLAR FASADLARINI PARDOZLASH TEXNOLOGIYALARINI EKSPLOATATSION ISHONCHLILIK VA XIZMAT MUDDATINI UZAYTIRISH ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH.....	41
<b>Amirov Shavkat Rahmatullayevich</b>	
ИНТЕГРАЛЬНАЯ ОЦЕНКА УСТОЙЧИВОГО ЦИФРОВОГО РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА И ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТУРИСТСКОГО ПОТЕНЦИАЛА БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ .....	48
<b>Усманова Азиза Баходировна</b>	
PEREGONDAGI HARAkatNI BOSHqARISH TIZIMLARINI MIKROPROTSESSORLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRILGAN TUZILMAVIY SXEMASINI ISHLAB CHIqISH.....	53
<b>Xujamkulov Eldor G'ayratjon o'g'li</b>	
INVESTITSIYALAR HAJMINI OSHIRISHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	62
<b>Alimova Dilafro'z Tohir qizii</b>	
HUDUDLAR KESIMIDA AHOLI O'SISHINING BANDLIK DARAJASIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH (O'ZBEKISTON MISOLIDA) .....	68
<b>Xusniddinova Gulnoza Ulug'bek qizi</b>	
QUYOSH FOTOELEKTRIK PANELLARI SAMARADORLIGIGA ATROF-MUHIT OMILLARI VA CHANGLANISHNING TA'SIRI HAMDA ULARNI KAMAYTIRISHGA QARATILGAN INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR.....	67
<b>Botirov Bozorbek, Iskandarova Charos, Avazov Jonibek, Sultonov Abror</b>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI .....	74
<b>Rajapov Xayrulla Bekdurdiyevich, Sharipova Lobar Umrbek qizi</b>	
INTERPOLATSION TIKLASH ALGORITMLARINING OCR ANIQLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASH.....	82
<b>Aliyev Nodirbek Hamidullo o'g'li</b>	
IKORXONALARDA KORPORATIV BOSHqARUVNI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI VA INSTITUTSIONAL OMILLARI.....	89
<b>Muxtorova Shaxlo Farxodovna</b>	
O'ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARINI EKONOMETRIK PROGNOZLASH.....	101
<b>Qo'ziboyev Behzod Hamidovich</b>	
KPI-BASED PERFORMANCE MANAGEMENT AND ITS IMPACT ON EMPLOYEE PRODUCTIVITY .....	106
<b>Sultanova Kamila Mukhtorali kizi</b>	
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH .....	111
<b>Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li</b>	



MHXS STANDARTLARIGA O‘TISH: KORXONALAR UCHUN AMALIY MUAMMOLAR VA YECHIMLAR .....	117
<b>Eshniyazova Yulduz Yuldashbayevna</b>	
TURMUSH FAROVONLIGINI BAHOLASHNING KO‘P O‘LCHOVLI USULLARI VA MEZONLARI .....	123
<b>Turdikulova Moxira Maxmasharifovna</b>	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING MOLIVAVIY-IQTISODIY IMPERATIVLARI .....	127
<b>Kaxorova Zamira Safaraliyevna</b>	
YENGIL SANOAT KORXONALARIDA RO‘Y BERISHI MUMKIN BO‘LGAN BAXTSIZ HODISALAR VA UNI BARTARAF ETISH CHORA-TADBIRLARI .....	132
<b>Dehqonov Oyatillo Mansurbek o‘g‘li, Abduraxmanov Abdurashid Ataxanovich</b>	
VTULKA DETALINI ISHLAB CHIQRISHDA SHTAMPLASH TEXNOLOGIK JARAYONINI ISHLAB CHIQISH... .....	143
<b>Abdullayev Fatxulla, Xasanov Kamoliddin, Yolg‘ashova Madina, Jo‘rayev Muhiddin</b>	
JAHON MOLIVAVIY TIZIMINING TRANSFORMATSIYASI.....	147
<b>Qobilova Nodira Qayumjon qizi, Normurodov X.E.</b>	
KORXONALARDA “TEJAMKOR ISHLAB CHIQRISH” KONSEPSIYASIDAN FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASI .....	151
<b>Mamasoliyev G‘ayratbek Maxamadyusupovich</b>	
HUDUDIY BARQARORLIKNI TA‘MINLASHDA MAHSULOT EKSPORTINI DIVERSIFIKATSIYALASH YO‘LLARI.....	156
<b>Mamadjanova Tuyg‘unoy Axmadjanovna</b>	
PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARIDA ISHLAB CHIQRISHNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH ASOSIDA YUQORI QO‘SHILGAN QIYMATLI MAHSULOTLAR ULUSHINI KENGAYTIRISH .....	161
<b>Yusupova Feruza Yo‘ldoshevna</b>	
AHOLINING MOLIVAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA MIKROLOYIHALARNING O‘RNI .....	166
<b>Irgashev Anvar Farxodovich</b>	
XALQARO KOMPANIYALARDA INNOVATSION BOSHQARUV TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI.....	173
<b>Raxmankulov Sherzod Shokirovich</b>	
ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОЦЕССА ДЕГРАДАЦИИ КОМПОНЕНТОВ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКИХ МОДУЛЕЙ В ЗАВИСИМОСТИ ОТ КЛИМАТИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ: ЛИТЕРАТУРНЫЙ ОБЗОР .....	178
<b>Дыскин Валерий Григорьевич, Курбанов Юнус Муртаза угли, Жубаназаров Ринат Шапагат Улы</b>	
RIVOJLANGAN DAVLATLARDA CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH TIZIMINING INSTITUTSIONAL ASOSLARI .....	184
<b>O‘tbosarov Abrorbek Adxamjon o‘g‘li</b>	
DAVLAT ORGANLARI VA TASHKILOTLARI ICHKI AUDITORLARINING PROFESSIONAL AXLOQ QOIDALARINI ISHLAB CHIQRISH.....	189
<b>Xamidova Zarifa Urol qizi</b>	
AUDIT JARAYONIDA DALIL OLISH VA UNING MUAMMOLARI .....	196
<b>Ro‘zmetov Mansur</b>	
O‘ZBEKISTONDA IJTIMOYIY TURIZMNI QO‘LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMI VA ULARNING SAMARADORLIGI.....	200
<b>Shaydulova Marjona Alisher qizi</b>	
KORXONALARNING MOLIVAVIY HOLATINI IFODALOVCHI KO‘RSATKICHLAR VA ULARNING MOLIVAVIY TAHLILI AHAMIYATI.....	205
<b>Rizoyev Farrux Hikmatilloevich</b>	
NAMANGAN VILOYATIDA KICHIK SANOAT ZONALARIDA IQTISODIY SALOHİYATNI TAKOMILLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH MASALALARI.....	210
<b>Turaboev Ibroxim Ismoil o‘g‘li</b>	
ISSIQLIK TEXNIKASIDA IKKILAMCHI BUG‘DAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH .....	215
<b>Komilova Nodira Abdirahmon qizi</b>	



СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В КОМПАНИЯХ С ГОСУДАРСТВЕННЫМ УЧАСТИЕМ В УСЛОВИЯХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ РЕФОРМ .....	225
<b>Юсупов Зойиржон Ровшан угли, Жумаев Улуғбек Нодирбекович</b> ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ УПРАВЛЕНИЯ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ КОМПАНИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛЬНЫХ ЛОГИСТИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ .....	231
<b>Тожалиев Шохрух Талип ўғли</b> GAMES ARE A POWERFUL TOOL FOR IMPROVING LANGUAGE LEARNING .....	236
<b>Kulakhmedova Gulnora Abdurahimovna</b> O‘ZBEKISTONDA TIJORAT BANKLARINING INNOVATSION XIZMATLARI ORQALI KAMBAG‘ALLIKNI KAMAYTIRISH .....	241
<b>Azlarova Aziza Axrorovna</b> AVTOMOBIL SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH JARAYONLARINI BOSHQARISH VA RISKLARNI KAMAYTIRISH MEKANIZMLARI .....	248
<b>Marufxanov Davron Hasanovich</b> O‘ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING YANGI IMKONIYATLARI: 2026-YIL ISLOHOTLARI VA ISTIQBOLLARI .....	255
<b>Isakjanova Saboxat Muhamedovna</b> MINTAQA IQTISODIYOTI VA SANOATNING RIVOJLANISHI O‘RTASIDAGI O‘ZARO BOG‘LIQLIKNING NAZARIY YONDASHUVLARI .....	263
<b>Jalolova Muazzamxon Akbarjonovna</b> DINAMIK NARX SHAKLLANTIRISHNI JORIY ETISHDA ASOSIY MUAMMOLAR VA ULARNI HAL ETISH YO‘LLARI .....	268
<b>Anvar Deberdiyev</b> RAQAMLI XIZMATLARNING O‘ZBEKISTON TASHQI SAVDO BALANSIDAGI O‘RNI .....	272
<b>Latipova Shaxnoza Maxmudovna, Normurodova Zuhra Orzimurod qizi</b> TURISTIK KORXONALAR INNOVATSION FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI .....	278
<b>Ruzibayeva Nargiza Xakimovna</b> IQTISODIY TIZIMDA TADBIRKORLIK VA TADBIRKORLIK QOBILiyATIGA YANGICHA YONDASHUV .....	283
<b>Tadjiev Bexzod Umidjanovich</b> OTMNI MOLIYAVIY TA‘MINLASHNING INNOVATSION MOLIYAVIY MODELARI .....	290
<b>Tuxliyev Bozor Karimovich</b> TOG‘-KON SANOATI KORXONALARIDA TEXNOLOGIK TIZIMLARNI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI .....	293
<b>Abirova Nargizabonu</b> TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATIDA INNOVATSION LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISHNI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI .....	298
<b>Ro‘ziyeva Maftuna Yusufovna</b> OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHDA IQTISODIY KO‘RSATKICHLAR DINAMIKASINING EMPIRIK TAHLILI .....	303
<b>Sharipova Shahlo Istamovna</b> METROLOGIYANING ILMIY-METODIK ASOSLARI VA UNING ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI .....	308
<b>Maxmudov Dostonbek Soyibjon o‘g‘li</b> SANOAT KORXONALARIGA KIRITILGAN INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI .....	312
<b>Mirzakulova Risolat Musurmankulovna</b> O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI DAVLAT BOSHQARUVI TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI .....	317
<b>Ibragimova Saodat, Mirhamidova Dilorom, Shagaipova Gulchehra</b>	



OLIY TA'LIM BITIRUVCHILARI SONINING JISMONIY SHAXSLAR DAROMAD SOLIG'IGA TA'SIRI VA INSON KAPITALI ORQALI IJTIMOY XARAJATLARNI BOSHQARISH.....	323
<b>Primova Nigora Ikrom qizi</b>	
GLOBAL BIZNESDA INNOVATSIYALARNING ROLI: YANGI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHGA STRATEGIK YONDASHUVLAR .....	331
<b>Raxmankulov Sherzod Shokirovich</b>	
ELEKTRON TIJORAT BILAN SHUG'ULLANUVCHI KORXONALARDA MIJOZLAR QONIQLASH DARAJASI..	337
<b>Aripov Ulug'bek Bahodirovich</b>	
KICHIK BIZNESDA INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	341
<b>Xakimov Akbar Anvarovich</b>	
FOTOELEKTRIK TIZIM SAMARADORLIGIGA HARORAT, SOYALANISH VA DEGRADATSIYA OMILLARINING TA'SIRI.....	344
<b>Majidova Maxliyo A'zam qizi</b>	
ISSIQLIK TEXNIKASIDA IKKILAMCHI BUG'DAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH .....	354
<b>Komilova Nodira Abdirahmon qizi</b>	
STUDY OF THE INFLUENCE OF MEMBRANE REACTOR ON METHANE CONVERSION WITH WATER VAPOR AND CARBON OXIDE (IV).....	362
<b>Umida Shabarova, Sugdiyana Abdurasulova</b>	
ESG MANAGEMENT IN COMMERCIAL BANKS OF UZBEKISTAN: EVALUATION PRACTICES, KEY DETERMINANTS, AND STRATEGIC PRIORITIES.....	367
<b>Sanemkhan Abdullaeva</b>	
UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA STRATEGIK MENEJMENTNING O'RNI VA AHAMIYATI .....	375
<b>Boymirzayev Doniyorbek Anvarjon o'g'li</b>	
PEDAGOGIK MAHORATNI OSHIRISHDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH ORQALI TA'LIM JARAYONINI TAKOMILLASHTIRADIGAN PLATFORMA ISHLAB CHIQLASH .....	379
<b>Salomov Shokirjon, Boboyev Shavkat, Normamatov Xayriddin</b>	
ПОВЫШЕНИЕ ОГНЕСТОЙКОСТИ МАТЕРИАЛОВ НА ОСНОВЕ ВТОРИЧНОГО ПОЛИЭТИЛЕНА.....	386
<b>Назаров Феруз, Назаров Фарход, Ахмедова Фазилат, Элмуродов Элгез, Янгибоев Асадбек</b>	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA INNOVATSION JARAYONLARNI JADALLASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	391
<b>Berdiyev Jasur Qo'ldoshevich, Rasulov Akmal Xurshid o'g'li</b>	
EKSPORT VA IMPORTDA TRANSPORT LOGISTIKASINING AHAMIYATI.....	397
<b>Yodgorova Shaxnoza Xayridinovna, Bazarova Sevinch Salim qizi</b>	
MADANIY MEROS OBYEKTLARINING TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDAGI STRATEGIK AHAMIYATI .....	403
<b>Kuymuratova Matlubaxon Abdimanabovna</b>	
EKSPORT VA IMPORTDA TRANSPORT LOGISTIKASINING AHAMIYATI.....	407
<b>Yodgorova Shaxnoza Xayridinovna, Bazarova Sevinch Salim qizi</b>	
XORAZM VILOYATINING IQTISODIY SALOHİYATI VA TRANSPORT INFRATUZILMASINING TARKIBI HAMDA JORIY HOLATI .....	411
<b>Karimova Shaxnoza O'ktamovna</b>	
TURISTIK KORXONALAR INNOVATSION FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI.....	418
<b>Ruzibayeva Nargiza Xakimovna</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ JOYLARIDA TURIZM XIZMATLARI INFRATUZILMALARINI RIVOJLANTIRISH .....	423
<b>Xalimov Shaxboz Xalimovich</b>	
AKTIVLAR QADRSIZLANISHI XARAJATLARINING MOLIYAVIY VA SOLIQ HISOBOTLARIGA TA'SIRI.....	427
<b>Jarimbetov Ajiniyaz Kurbanbaevich</b>	



MUHANDISLIK GEOMETRIYASI VA KOMPYUTER GRAFIKASI FANLARINI O'QITISHDA MULTIMEDIA VA INTERAKTIV TEXNOLOGIYALARNING TA'LIM NATIJALARIGA TA'SIRI: AUDIO VA VIDEOTEKNOLOGIYALAR IXTISOSLIGI MISOLIDA EMPIRIK TADQIQOT.....	430
<b>Utkirova Mamura Faxriddin qizi</b>	
HUDUDIY TADBIRKORLIK TIZIMIDA INVESTITSION RESURSLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INSTITUTSIONAL VA EKONOMETRIK YONDASHUVLARI .....	436
<b>Isakov Axmadali Esanbayevich</b>	
MINTAQAVIY OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARINING INNOVATSION RIVOJLANISHIGA INVESTITSION RESURSLARNING TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH .....	444
<b>Abdunabiyev Sirojiddin G'anijon o'g'li</b>	
XABAR ALMASHISHGA ASOSLANGAN MARKETINGDA ISTE'MOLCHILARNING SHAXSIY HAYOTINI KUTILMALARI .....	452
<b>Raxmatova Sitora Shuxratjon qizi</b>	
DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALARNI OPTIMALLASHTIRISH VA SOG'LOM RAQOBAT MUHITINI SHAKLLANTIRISH: XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT SEKTORINI INSTITUTSIONAL ISLOH QILISHNING QIYOSIY TAHLILI .....	461
<b>Sharapov Umidjon Shavkatovich</b>	
ZAMONAVIY SERVIS KOMPANIYALAR TANNARXINI ANIQLASHNING DOLZARB YO'NALISHLARI .....	471
<b>Berdiyeva Dilfuza Axatovna</b>	
NAVOIY VILOYATINING TURISTIK OBYEKTUHLARI VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH ORQALI REKREATSION TURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI TAHLILI .....	477
<b>Turayev Abduvoxid Kuldashevich</b>	
INVESTITSIYALAR HAJMINI OSHIRISHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI .....	483
<b>Alimova Dilafro'z Tohir qizi</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TADBIRKORLIKNI RAG'BATLANTIRISH MEXANIZMLARI .....	488
<b>Suvonov Ibrohim Izbosarovich</b>	
QORAKO'L TERI JINGALAKLARINING TAKRORLANMAS KO'RINISHI VA XUSUSIYATLARI .....	492
<b>Hakimova Sh.Q., Azimov J.Sh., Farmonov F.F.</b>	
YOSH TADBIRKORLARNING STARTAP LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI .....	497
<b>Koriev Orif Azizovich</b>	
HUDUDLARDA OLIY TA'LIM VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI YO'NALISHLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....	502
<b>Berdiyev Jasur Qo'ldoshevich, Karimov Chuxmor Abdirashidovich</b>	
SUG'URTA KOMPANIYALARINING MOLIYAVIY HOLATI VA MOLIYAVIY NATIJALARI TAHLILI .....	507
<b>Alimov Baxodir Batirovich</b>	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI SIFATINI OSHIRISHNING IQTISODIY TAHLILI .....	513
<b>Turg'unov Nodirbek Muminjanovich</b>	
TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINING ROLI .....	516
<b>Xodjimatom Maksudbek Ubaydullayevich</b>	
MINTAQA TURIZM INDUSTRIYASINING IQTISODIY RIVOJLANISHI VA BOSHQARUV FAOLIYATLARI TAHLILI .....	520
<b>Berdiyev Jasur Qo'ldoshevich, Ruziqulov Aziz Tuxtayevich</b>	
TIJORAT BANKLARIDA FINTECH TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH ORQALI MOLIYAVIY INKLYUZIVLIKNI TA'MINLASH: NAZARIY YONDASHUV VA ISTIQBOLLAR .....	526
<b>Nazarova Shohista Tolmas qizi</b>	
METALLARGA BOSIM OSTIDA ISHLOV BERISH JARAYONLARINI RAQAMLI MODELLASHTIRISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI .....	531
<b>Xasanov Kamoliddin Akmal o'g'li, Abdullayev Fatxulla Sagdullayevich, Diyorov Salohiddin Farhod o'g'li, Jalolov Jafar Jamol o'g'li</b>	



XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA PUL MABLAG'LARI HISOBINI MHHS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH: USLUBIY VA AMALIY YONDASHUVLAR .....	537
<b>Umurzakov Dilshodbek Xakimovich</b> TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI YASHIRIN IQTISODIYOTNI AMALGA OSHIRISHGA UNDOVCHI OMILLAR.....	543
<b>Bobojonov Azimjon Akmal o'g'li</b> MINTAQANING INVESTITSION SALOHİYATINI BAHOLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	548
<b>Maxmudov Jasurbek Ergashevich</b>	



# MINTAQANING INVESTITSION SALOHIYATINI BAHOLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

**Maxmudov Jasurbek Ergashevich**

Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Email: [jasur77@gmail.com](mailto:jasur77@gmail.com)

<https://orcid.org/0009-0007-2002-9221>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada mintaqaning investitsion salohiyatini baholashning nazariy-metodologik asoslari tadqiq etilgan. Unda investitsion salohiyat tushunchasining iqtisodiy mazmuni, uning hududiy rivojlanishdagi o'rni hamda mintaqaviy investitsion faollikka ta'sir etuvchi asosiy omillar ilmiy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, investitsion salohiyatni baholashda qo'llaniladigan resurs, infratuzilmaviy, institutsional, innovatsion va moliyaviy yondashuvlar tizimlashtirilgan. Tadqiqot natijasida mintaqaning investitsion salohiyatini kompleks baholash zarurligi asoslab berilgan hamda baholash ko'rsatkichlari tizimini shakllantirish bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** mintaq, investitsion salohiyat, investitsion muhit, hududiy rivojlanish, investitsion jozibadorlik, baholash metodologiyasi, kompleks baholash, investitsion faollik, iqtisodiy salohiyat.

**Аннотация.** В данной статье изучаются теоретические и методологические основы оценки инвестиционного потенциала региона. Научно освещается экономическое содержание концепции инвестиционного потенциала, его роль в региональном развитии и основные факторы, влияющие на региональную инвестиционную активность. Также систематизированы ресурсные, инфраструктурные, институциональные, инновационные и финансовые подходы, используемые при оценке инвестиционного потенциала. В результате исследования обосновывается необходимость комплексной оценки инвестиционного потенциала региона и разрабатываются научные предложения по формированию системы показателей оценки.

**Ключевые слова:** регион, инвестиционный потенциал, инвестиционная среда, региональное развитие, инвестиционная привлекательность, методология оценки, комплексная оценка, инвестиционная активность, экономический потенциал.

**Abstract.** This article studies the theoretical and methodological foundations of assessing the investment potential of the region. It scientifically covers the economic content of the concept of investment potential, its role in regional development, and the main factors influencing regional investment activity. Also, the resource, infrastructural, institutional, innovative and financial approaches used in assessing investment potential are systematized. As a result of the study, the need for a comprehensive assessment of the investment potential of the region is substantiated and scientific proposals are developed for the formation of a system of assessment indicators.

**Keywords:** region, investment potential, investment environment, regional development, investment attractiveness, assessment methodology, comprehensive assessment, investment activity, economic potential.

## KIRISH

Hozirgi globallashuv va iqtisodiy integratsiya jarayonlarining jadallashuvi sharoitida mintaqaviy rivojlanish masalalari davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, hududlarning investitsion salohiyatini oshirish va undan samarali foydalanish milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda investitsiyalar nafaqat ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, balki hududlarning raqobatbardoshligini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish va innovatsion rivojlanishni jadallashtirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Mintaqaning investitsion salohiyati – bu hududning mavjud resurslari, iqtisodiy imkoniyatlari, infratuzilma darajasi, institutsional muhit va inson kapitali asosida investitsiyalarni jalb etish va samarali o'zlashtirish qobiliyatini ifodalovchi kompleks iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Shu bois, investitsion salohiyatni to'g'ri baholash hududiy iqtisodiy rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda mintaqalarning investitsion salohiyatini baholash masalasi dolzarb bo'lib, bu borada turli ilmiy yondashuvlar mavjud. Xususan, iqtisodiy adabiyotlarda investitsion salohiyatni resurs yondashuvi, natijaviy yondashuv, tizimli yondashuv hamda kompleks yondashuv asosida baholash taklif etilgan. Biroq



ushbu yondashuvlarning aksariyati alohida omillarni hisobga olishi bilan cheklanib, mintaqaning investitsion imkoniyatlarini to'liq va tizimli baholash imkonini bermaydi. Bu esa mazkur yo'nalishda ilmiy izlanishlarni chuqurlashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlarda hududiy investitsion salohiyatni baholashda kompleks indikatorlar tizimi qo'llanilib, bunda iqtisodiy, ijtimoiy, institutsional va innovatsion omillar uyg'un holda hisobga olinadi. Shu bilan birga, zamonaviy sharoitda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi investitsion jarayonlarni boshqarish va baholash metodologiyasiga yangi talablarni qo'yimoqda.

Mazkur maqolaning dolzarbligi mintaqaning investitsion salohiyatini baholashning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish zarurati bilan belgilanadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – investitsion salohiyat tushunchasining iqtisodiy mazmunini aniqlashtirish, uni baholashning mavjud metodologik yondashuvlarini tizimlashtirish hamda mintaqaviy darajada kompleks baholash usullarini ilmiy asoslashdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mintaqaning investitsion salohiyatini baholash masalasi iqtisodiy adabiyotlarda ko'p omilli, murakkab va tizimli jarayon sifatida talqin etiladi. Ushbu yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlarda investitsion salohiyat, investitsion jozibadorlik, investitsion muhit va investitsion risk tushunchalari o'zaro bog'liq kategoriyalar sifatida o'rganilgan.

V.V.Litvinova tadqiqotlarida mintaqaning investitsion jozibadorligini baholashda investitsion salohiyat va investitsion risk asosiy mezon sifatida ajratiladi. Muallif fikricha, hududning investitsion muhiti aynan ushbu ikki ko'rsatkich uyg'unligi orqali aniqlanadi. Bu yondashuv mintaqaga kapital oqimini belgilovchi ichki imkoniyatlar va tashqi xavflarni birgalikda baholash imkonini beradi.

A.I.Shuvayeva mintaqaning investitsion salohiyatini baholash metodikalarini tahlil qilib, mavjud usullar hududning investitsion jozibadorlik darajasini aniqlashga xizmat qilishini ta'kidlaydi. Uning yondashuvida investitsion salohiyat hududdagi resurslar, infratuzilma, iqtisodiy faollik va boshqaruv omillari bilan uzviy bog'liq holda qaraladi.

V.K.Dokalskaya tomonidan taklif etilgan yondashuvda mintaqaning investitsion salohiyatini baholashda kompleks iqtisodiy-matematik vositalardan foydalanish zarurligi asoslanadi. Muallif investitsion jarayon tarkibiy qismlarini aniqlash hamda hududiy investitsion jozibadorlikni kompleks model asosida baholashni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi.

S.V.Bereznev tadqiqotlarida mintaqaning investitsion salohiyatini baholashda hudud sanoatining tarmoq tarkibi va infratuzilmaviy ta'minlanganlik darajasi alohida ahamiyatga ega ekani ko'rsatiladi. Ushbu yondashuv investitsion salohiyatni faqat umumiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar orqali emas, balki hududning real ishlab chiqarish bazasi va infratuzilma imkoniyatlari orqali baholash zarurligini asoslaydi.

V.A.Polyakov va I.V.Fomicheva tadqiqotlarida esa hududlarning investitsion jozibadorligini tezkor baholash masalasi ko'rib chiqilgan. Mualliflar to'liq bo'lmagan axborot sharoitida ham asosiy makroiqtisodiy omillar asosida hududlar raqobatbardoshligini aniqlash imkonini beruvchi ekspress-baholash yondashuvini taklif etadi.

V.N.Myakshin mintaqaning investitsion jozibadorligini aniqlashda balanced scorecard, ya'ni muvozanatlashgan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish zarurligini asoslaydi. Ushbu yondashuv investitsion muammolarni aniqlashda iqtisodiy, institutsional va boshqaruv ko'rsatkichlarini uyg'un holda baholash imkonini beradi.

O'zbekistonlik olimlardan Sh.I.Mustafakulov investitsion jozibadorlikni hududga investitsiya oqimini belgilovchi iqtisodiy, ijtimoiy, tabiiy, institutsional imkoniyatlar va cheklovlar majmui sifatida talqin qiladi. Mazkur yondashuv mintaqaning investitsion salohiyatini baholashda nafaqat iqtisodiy resurslarni, balki ijtimoiy va institutsional sharoitlarni ham hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

S.A.Sulaymanov tomonidan taklif etilgan metodikada mintaqaning investitsion salohiyatini baholashda hudud sanoatining tarmoq xususiyatlari, infratuzilmaviy ta'minlanganlik darajasi va investitsion faoliyatni belgilovchi ustuvor yo'nalishlar alohida ajratiladi. Bu yondashuv hududiy investitsion siyosatni ishlab chiqishda amaliy ahamiyatga ega.

O.K.Akramova tadqiqotlarida mintaqaning investitsion jozibadorligini baholashda investitsion risk va asosiy ko'rsatkichlar ta'sirini hisobga oluvchi model taklif etilgan. Muallif investitsion jozibadorlikni iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik sharoitlarni qamrab oluvchi ko'p qirrali kategoriya sifatida baholaydi.

Yuqoridagi ilmiy qarashlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mintaqaning investitsion salohiyatini baholashda yagona universal yondashuv mavjud emas. Ayrim olimlar investitsion salohiyatni resurslar va ishlab chiqarish imkoniyatlari bilan bog'lasa, boshqalari uni investitsion risk, institutsional muhit, infratuzilma va innovatsion imkoniyatlar bilan birgalikda baholashni taklif etadi. Shu sababli, mazkur maqolada mintaqaning investitsion salohiyatini baholashda resurs, infratuzilmaviy, institutsional, innovatsion va risk omillarini birlashtiruvchi

kompleks metodologik yondashuv asosiy ilmiy yo'nalish sifatida qabul qilinadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda mintaqaning investitsion salohiyatini baholashning nazariy-metodologik asoslarini ochib berish uchun kompleks ilmiy yondashuv qo'llanildi. Xususan, tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, taqqoslash, iqtisodiy-statistik usullar, guruhlash hamda abstrakt-mantiqiy yondashuvlardan foydalanildi. Tizimli yondashuv asosida mintaqaning investitsion salohiyati o'zaro bog'liq elementlardan – iqtisodiy resurslar, infratuzilma, institutsional muhit va inson kapitalidan tashkil topgan murakkab tizim sifatida o'rganildi. Taqqoslash usuli yordamida xorijiy tajribalar va turli ilmiy yondashuvlar o'zaro solishtirildi. Iqtisodiy-statistik tahlil orqali investitsion salohiyatni ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlar tizimi shakllantirildi, guruhlash usuli yordamida esa hududiy omillar kategoriyalarga ajratildi. Abstrakt-mantiqiy yondashuv orqali investitsion salohiyat tushunchasi nazariy jihatdan umumlashtirilib, uning baholash mezonlari tizimlashtirildi. Mazkur metodologik yondashuvlar mintaqaning investitsion salohiyatini kompleks baholash va uning rivojlanish yo'nalishlarini ilmiy asoslash imkonini berdi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Mintaqaning investitsion salohiyatini baholash masalasi ko'p omilli va tizimli yondashuvni talab etadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, hududning investitsion salohiyati faqat mavjud resurslar hajmi bilan emas, balki ularni samarali safarbar etish, boshqarish va investitsion jarayonlarga jalb etish imkoniyatlari bilan belgilanadi (1-jadval).

### 1-jadval

#### Mintaqaning investitsion salohiyati tarkibiy elementlari va ularni baholash ko'rsatkichlari<sup>1</sup>

No	Tarkibiy element	Iqtisodiy mazmuni	Asosiy baholash ko'rsatkichlari
1	Resurs salohiyati	Mintaqaning tabiiy, moliyaviy va ishlab chiqarish resurslari majmui	YaIM hajmi, sanoat ishlab chiqarishi, asosiy kapitalga investitsiyalar
2	Infratuzilma salohiyati	Transport, energetika va logistika tizimlarining rivojlanganlik darajasi	Avtomobil yo'llari uzunligi, elektr energiyasi ta'minoti, logistika indeksi
3	Institutsional salohiyat	Huquqiy-me'yoriy muhit va boshqaruv tizimi samaradorligi	Biznes yuritish qulayligi, soliq yuklamasi, ma'muriy to'siqlar
4	Inson kapitali salohiyati	Mehnat resurslarining sifat va malaka darajasi	Bandlik darajasi, oliy ma'lumotlilar ulushi, mehnat unumdorligi
5	Innovatsion salohiyat	Ilmiy-texnik va texnologik rivojlanish imkoniyatlari	R&D xarajatlari, patentlar soni, innovatsion mahsulotlar ulushi

1-jadvaldan ko'rinadiki, mintaqaning investitsion salohiyati ko'p komponentli tizim bo'lib, uning har bir tarkibiy elementi investitsiya jarayonida alohida funksiyani bajaradi. Resurs salohiyati investitsiyalarni jalb qilishning boshlang'ich asosini tashkil etsa, infratuzilma salohiyati investitsiya loyihalarini amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shu bilan birga, institutsional salohiyat investitsion muhitning barqarorligi va shaffofligini ta'minlab, investorlar ishonchini shakllantiradi. Inson kapitali esa investitsiyalar samaradorligini belgilovchi asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi. Zamonaviy sharoitda innovatsion salohiyatning ahamiyati ortib borib, u investitsion salohiyatning sifat jihatdan yangi bosqichini belgilaydi.

Demak, investitsion salohiyatni baholashda ushbu komponentlarni alohida emas, balki o'zaro bog'liq tizim sifatida ko'rib chiqish ilmiy jihatdan asosli hisoblanadi (2-jadval).

### 2-jadval

#### Mintaqaning investitsion salohiyatini baholash metodologik yondashuvlari tahlil<sup>2</sup>

No	Yondashuv turi	Mazmuni	Afzalliklari	Cheklovlari
1	Resurs yondashuvi	Mintaqadagi mavjud resurslar hajmini baholash	Oddiy va tezkor hisoblash	Kompleks baholashni ta'minlamaydi
2	Natijaviy yondashuv	Investitsiya natijalari asosida baholash	Amaliy natijaga yo'naltirilgan	Sabab-oqibat bog'liqligini ochmaydi

1 Muallif ishlanmasi

2 Muallif ishlanmasi




3	Tizimli yondashuv	Barcha omillarni o'zaro bog'liqlikda baholash	Kompleks va chuqur tahlil imkonini beradi	Hisoblash murakkab
4	Integral yondashuv	Ko'rsatkichlarni yagona indeksga birlashtirish	Taqqoslash imkoniyati yuqori	Subyektiv og'irliklar ta'siri mavjud

2-jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, mintaqaning investitsion salohiyatini baholashda turli metodologik yondashuvlar mavjud bo'lib, ularning har biri ma'lum jihatdan afzallik va cheklovlarga ega. Resurs yondashuvi soddaligi bilan ajralib tursa-da, investitsion muhitning kompleks xususiyatlarini to'liq aks ettira olmaydi. Natijaviy yondashuv esa amaliy samaradorlikni ko'rsatadi, biroq investitsiya jarayonining ichki omillarini chuqur tahlil qilish imkonini bermaydi.

Tizimli yondashuv investitsion salohiyatni barcha omillar kesimida baholash imkonini beradi, bu esa ilmiy jihatdan eng asosli yondashuvlardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, integral yondashuv turli ko'rsatkichlarni yagona indeksga birlashtirib, hududlararo taqqoslashni osonlashtiradi.

Natijada, mintaqaning investitsion salohiyatini baholashda eng samarali usul sifatida tizimli va integral yondashuvlarning uyg'un kombinatsiyasidan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. Bu esa baholash natijalarining aniqligi va ishonchlilikini oshirishga xizmat qiladi.

1-rasmda mintaqaning investitsion salohiyatini baholash jarayoni tizimli va bosqichma-bosqich yondashuv asosida ifodalangan. Modelning yuqori qismida investitsion salohiyatni shakllantiruvchi asosiy omillar – resurs salohiyati, infratuzilma salohiyati, institutsional salohiyat, inson kapitali salohiyati va innovatsion salohiyat ajratib ko'rsatilgan. Bu omillar hududning investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish imkoniyatlarini belgilovchi asosiy tarkibiy qismlar hisoblanadi (1-rasm).



1-rasm. Mintaqaning investitsion salohiyatini baholash modeli

Modelda har bir omil alohida ko'rsatkichlar orqali baholanishi nazarda tutilgan. Jumladan, resurs salohiyati YAIM hajmi, sanoat ishlab chiqarishi va asosiy kapitalga investitsiyalar orqali; infratuzilma salohiyati yo'llar uzunligi, elektr energiyasi ta'minoti va logistika indeksi orqali; institutsional salohiyat biznes yuritish qulayligi, soliq yuklamasi va ma'muriy to'siqlar orqali baholanadi. Inson kapitali bandlik darajasi, oliy ma'lumotlilar ulushi va mehnat unumdorligi bilan, innovatsion salohiyat esa R&D xarajatlari, patentlar soni va innovatsion mahsulotlar ulushi bilan ifodalanadi.

Rasmning markaziy qismida kompleks baholash bosqichi berilgan bo'lib, unda ko'rsatkichlarni

normallashtirish, og'irlik koeffitsiyentlarini aniqlash va integral indeksni hisoblash jarayonlari aks ettirilgan. Bu bosqich investitsion salohiyatni alohida ko'rsatkichlar yig'indisi sifatida emas, balki o'zaro bog'liq omillar tizimi sifatida baholash imkonini beradi.

Modelning keyingi bosqichida hisoblangan integral indeks mintaqaning investitsion salohiyati darajasini aniqlovchi asosiy mezon sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu indeks asosida hududning investitsion jozibadorlik darajasi past, o'rta, yuqori yoki juda yuqori toifalarga ajratiladi. Bu esa mintaqalararo taqqoslash, investitsion ustuvorliklarni belgilash va hududiy siyosatni shakllantirishda muhim amaliy ahamiyatga ega.

Rasmning yakuniy qismida investitsion salohiyatni to'g'ri baholash natijasida investitsiyalar oqimi va iqtisodiy o'sish ta'minlanishi ko'rsatilgan. Investitsiyalar hajmining oshishi yangi ish o'rinlari yaratish, ishlab chiqarish va xizmatlar sohasini kengaytirish hamda hududiy iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, mazkur model mintaqaning investitsion salohiyatini baholashda resurs, infratuzilmaviy, institutsional, inson kapitali va innovatsion omillarni kompleks uyg'unlikda tahlil qilish zarurligini asoslaydi. Modelning ilmiy ahamiyati shundaki, u investitsion salohiyatni faqat mavjud resurslar hajmi bilan emas, balki ularni investitsion jarayonga samarali safarbar etish imkoniyati bilan baholashni taklif etadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqotda mintaqaning investitsion salohiyatini baholashning nazariy-metodologik asoslari kompleks yondashuv asosida tahlil qilindi. Olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida investitsion salohiyat iqtisodiy kategoriya sifatida ko'p omilli, murakkab va tizimli xarakterga ega ekani asoslab berildi. Uning shakllanishi resurs, infratuzilmaviy, institutsional, inson kapitali va innovatsion omillarning o'zaro uyg'unligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot davomida investitsion salohiyatni baholashning mavjud metodologik yondashuvlari tahlil qilinib, ularning afzallik va cheklovlari aniqlandi. Xususan, resurs va natijaviy yondashuvlar muayyan jihatlarni yoritib bersa-da, investitsion jarayonning to'liq mohiyatini ochib berishda yetarli emasligi aniqlangan. Shu bois, investitsion salohiyatni baholashda tizimli va integral yondashuvlarning uyg'un kombinatsiyasidan foydalanish ilmiy jihatdan asoslangan eng maqbul usul sifatida e'tirof etildi.

Shuningdek, tadqiqotda mintaqaning investitsion salohiyatini kompleks baholash modeli ishlab chiqildi. Ushbu model asosida turli ko'rsatkichlarni normallashtirish, og'irlik koeffitsiyentlarini aniqlash va integral indeks hisoblash orqali hududning investitsion jozibadorlik darajasini aniqlash imkoniyati yaratildi. Bu esa hududlar kesimida investitsion siyosatni shakllantirish, ustuvor yo'nalishlarni belgilash va investitsiyalarni samarali taqsimlashda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, mintaqaning investitsion salohiyatini to'g'ri baholash hududiy iqtisodiy rivojlanishning muhim omili hisoblanib, u investitsiyalar oqimini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, kelgusida investitsion salohiyatni baholash metodologiyasini takomillashtirish, ayniqsa raqamli texnologiyalar va iqtisodiy modellashtirish vositalaridan keng foydalanish dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri bo'lib qoladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
2. Litvinova V.V. Investitsion jozibadorlik va hududiy rivojlanish masalalari. – Moskva: Nauka, 2019.
3. Shuvayeva A.I. Mintaqaning investitsion salohiyatini baholash metodikalari // Iqtisodiyot va boshqaruv jurnali, 2020.
4. Dokalskaya V.K. Hududiy investitsion salohiyatni kompleks baholash usullari // Mintaqaviy iqtisodiyot, 2021.
5. Bereznev S.V. Mintaqaning investitsion salohiyatini baholashda sanoat infratuzilmasining roli // Iqtisodiy tadqiqotlar, 2019.
6. Polyakov V.A., Fomicheva I.V. Hududiy investitsion jozibadorlikni ekspress baholash usullari // Moliyaviy tahlil jurnali, 2020.
7. Myakshin V.N. Balanced Scorecard asosida investitsion jozibadorlikni baholash // Iqtisodiy tizimlar jurnali, 2021.
8. Mustafakulov Sh.I. Investitsion jozibadorlikni baholashning nazariy asoslari // O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi, 2022.
9. Sulaymanov S.A. Hududiy investitsion siyosatni takomillashtirish yo'nalishlari // Iqtisodiyot va innovatsiyalar, 2021.
10. Akramova O.K. Investitsion salohiyat va risklarni baholash modeli // Moliyaviy tahlil va prognozlash, 2022.
11. World Bank. World Development Report 2024. Washington, DC, 2024.
12. OECD. Regional Development Policy Outlook 2023. Paris, 2023.
13. UNCTAD. World Investment Report 2023. New York, 2023.

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2026. № 5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)